XALQ DEPUTATLARI OLTINKO‘L TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 26-iyul VI-51-53-1-15-K/24 Oltinko‘l tumani

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79- sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Oltinko’l tuman Suv yetkazib berish xizmati Davlat muassasasi jami 325 ta fermer xo’jaliklari va 1 ta kalasterga shartnoma asosida suv yetkazib beradi. Shundan 146 tasi paxta-g’alla, 84 tasi bog’ va tokzorlar, 16 tasi balig’chilik, 14 tasi sholichilik, qolgani axoli tomorqa yerlari, dexqon xo’jaliklari va yoshlarga foydalanish uchun berilgan 10 sotixlik yerlar shular jumlasidandur.

Oltinko’l DM xisobida jami 32 ta kanal bo’lib, umumiy maydoni 140.9 km ni tashkil qiladi. Tuproq o’zani 100.3 km, beton qoplamaligi 37.10 km, lotok tarmoqli 3.8 km ni tashkil qiladi.

Jami gidrotexnik inshootlar soni 229 dona, jami gidropostlar soni 83 donani tashkil qiladi.

2023 yilda Oltinko’l tumanida jami 74 km ariqlar betonlashtirish rejalashtirilgan bo’lib shundan fermer xo’jaliklar bo’yicha 4 km, klaster bo’yicha 4.5 km, axoli bo’yicha 1.9 km, TIB ariqlari bo’yicha 3 km, jami 16.0 (64.1) km ariqlar betonlashtirildi.

Oltinko’l tuman qishloq xo’jalik yetishtiruvchilari paxta maydonlarida tomchilatib sug’orish texnalogiyasini joriy etish bo’yicha tumanda 110 ga maydonda (10 ta fermer xo’jalik) joriy qilingan bo’lib, g’alla maydonlarida 113 ga maydon (8 ta fermer xo’jalik) yomg’irlatib sug’orish texnalogisi asosida sug’oriladi va bu suvni 30 foyizgacha tejalishiga yordam beradi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 5-yanvardagi “Quyi bo’g’inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-5-son qarori bilan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakillangan “Suv tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug’orish texnalogiyalarini kengaytirilgan tartibda joriy etishni “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo’lga qo’yish hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarorga muvofiq quyidagilar;

- suv resurslardan foydalanganlik uchun soliqdan O’zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tushgan tushimning 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularga tegishli ob’ektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yo’naltirilishi.

- suv solig’i tushumi past bo’lgan tumanda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqqi va unga tenglashtirilgan to’lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag’larni “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalarini saqlash xarajatlari uchun mahalliy budjetlarda ajratilgan mablag’larni tuman budjetlari o’rtasida qayta taqsimlash bo’yicha tuman xalq deputatlari Kengashiga taklif kiritish belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ushbu masalani Xalq deputatlari tuman Kengashining navbatdagi sessiyasida ko’rib chiqilishini so’raymiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-son qarori bilan suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, suvdan roydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali aholi ongida shakllangan “suv-tekin” tushunchasidan voz kechish hamda suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarni kengaytirgan tartibda joriy etishni “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24–moddalariga asosan xalq deputatlari Oltinko‘l tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlar muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarori asos va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashining 2023-yil 26-dekabrdagi VI-57-255-1-0-K/23-sonli qaroriga muvofiq, Xalq deputatlari Oltinko’l tumani Kengashining 2024-yil 29-dekabrdagi Oltinko’l tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash” to‘g‘risidagi VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga asosan 3-ilovasi bilan tasdiqlangan 2024-yil uchun byudjet daromadlarining mahalliy budjetlar o‘rtasida taqsimlanishi bo‘yicha ajratma me’yorlarida suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq tushumi tuman mahalliy byudjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

3.Oltinko‘l tumani “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasi faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida, 2024-yil uchun suv xo‘jaligining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi xisobiga tuman(shahar)lar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdori 1-ilovaga muvofiq teng miqdorlarda oshirilsin. Bunda, ushbu prognoz ko‘rsatkichini oshirilishda qishloq xo‘jaligi korxonalari uchun yil davomida suv yetkazib berish hajmini oshirilishi ko‘zda tutilganligi inobatga olinsin.

Xalq deputatlari Oltinko’l tuman Kengashining 2023 yil 29-dekabrdagi VI-45-86-1-15-K/23-sonli qarorining 5-ilovasiga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

4.Oltinko‘l tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Yulchiev), Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov), Tuman G‘aznachilik xizmati bo‘limi boshlig‘i (A.Umarov), qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovidan tuman(shahar)lar mahalliy byudjetiga haqiqatda kelib tushgan mablag‘larni 40 foizini har oy yakuni bo‘yicha belgilangan muddatlarda tegishli hududlar Oltinko‘l tumani “Suv yetkazib berish xizmati DM ning byudjetdan tashqari g‘azna xisob varag‘iga o‘tkazib borilishini ta’minlasin.

5.Oltinko‘l tuman xokimligi mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini suv solig‘ining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan xalq deputatlari Oltinko‘l tuman Kengashiga taklif kiritish va tegishli qaror qabul qilishini ta’minlasin.

6.Oltinko‘l tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Yulchiev), Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, bunda suv soliq’ining haqiqatda kelib tushgan tushumlaridan kelib chiqqan holda hamda suv solig‘i tushumi past bo‘lgan tuman (shahar)larda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag‘larni, Oltinko‘l tuman Suv yetkazib berish xizmati DM saqlash xarajatlari uchun mahalliy byudjetlarda ajratilgan mablag‘larni tuman(shahar)lar byudjetlari o‘rtasida qayta taqsimlash bo‘yicha xarajatlar smetasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritib borsin.

7.Oltinko‘l tuman soliq inspektsiyasi (B.Ummatqulov), Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (X.Xamidov) Oltinko‘l tuman xokimliklari bilan birgalikda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarni sug‘orish va baliqlarni yetishtirish (o‘stirish) uchun foydalanilgan suv xajmi, shu jumladan, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslardan suv resurslaridan foydalangan muddatlarda undirish choralarini ko‘rsin.

8.Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman Kengashining 2024 yil 15 iyuldagi VI-51-50-1-15-K/24 son qarori bekor qilinsin.

9.Oltinko‘l tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Yulchiev), Tuman “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasiga ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflanishi ustidan tizimli ravishda nazorat o‘rnatsin.

10.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Asranov) hamda tuman xokimining o‘rinbosari (S.Ergashov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi

SATIMOVA GULNOZA G‘ULOMJONOVNA

Xalq deputatlari Oltinkoʻl tumani
Kengashining
2024-yil 26-iyuldagi
VI-51-53-1-15-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori asosan “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasi faoliyatini moliyaviy ta’minlash maqsadida, 2024-yil uchun suv xoʻjaligining prognoz qilingan summasini 40 foizga oshirilishi xisobiga tuman(shahar)lar mahalliy byudjetining 2024-yil uchun belgilangan daromadlari va xarajatlari miqdoriga kiritilayotgan oʻzgarishlar

T/R	Hududlar nomi	Daromadlar (ming soʻm)			Xarajatlar* (ming soʻm)
		2024-yil uchun tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari tarkibidagi suv soligʻi prognozi	oshirilgan prognoz miqdori (40 foiz)	2024-yil uchun aniqlash-tirilgan progno	Hududiy "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari faoliyatini moliyalashtirish xarajatlar
1.	Oltinkoʻl tumani	3 219 000	1 287 600	4 506 600	1 287 600

Izoh: *) Bunda tumanlardagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari xududiy byudjet mablagʻi taqsimlovchilari hisoblanadi.

Xalq deputatlari Oltinko‘l tumani
Kengashining
2024-yil 26-iyuldagi
VI-51-53-1-15-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlarining daromatlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

№	Hududlar nomi	Daromadlar	Xarajatlar
1.	Oltinko‘l tumani	58 522 100,0	200 076 550,0

* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda.